NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SULAYMONOV MAXMUDBEK SHUXRATBEKOVICH

YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TADQIQI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K: 17.021.2 (575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Sulaymonov Maxmudbek Shuxratbekovich
Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tadqiqi 3

Сулаймонов Махмудбек Шухратбекович
Социально-философское исследование развития гражданской позиции у молодежи 21

Sulaymonov Maxmudbek Shuxratbekovich
Socio-philosophical study of the development of civic position in youth 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.F.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SULAYMONOV MAXMUDBEK SHUXRATBEKOVICH

YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TADQIQI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fal1617 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rustamov Ilhomiddin Abduqodirovich,** falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Mamatov Obidxon Vaqqosovich** Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
	Saidkasimov Akbarjon Isaxonovich falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A.Talapov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

N.M.Kodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

R.R.Zamilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyodagi global qarama-qarshiliklar sharoitida davlat va jamiyat taraqqiyotining barqarorligi ijtimoiy rivojlanganlik darajasiga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Chunki amalga oshirilayotgan islohotlarning jamiyat a’zolari tomonidan to‘g‘ri tushunilishi, qo‘llab-quvvatlanishi va sa’y-harakatlar uyg‘unligini ta’minlash uchun faol fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish zarur. Shu sababli dunyoning turli davlatlarida yoshlar va aholi orasida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday sa’y-harakatlarning asosiy mohiyati ijtimoiy birlikni mustahkamlash, tashqi tahdidlar sharoitida jamiyat a’zolarining turli guruh va oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish hamda oqibatda destruktiv harakatlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Jahon miqyosida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari bilan UNESCO, OECD, Brookings Institution, RAND Corporation, CIVICUS kabi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tizimli ravishda shug‘ullanib kelmoqda. Shuningdek, Harvard Kennedy School, Stanford CDDRL, London School of Economics kabi yetakchi ilmiy maktablarda ushbu masala chuqur o‘rganilmoqda. Nazariy jihatdan esa Frankfurt School hamda Jürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi asosida fuqarolik faolligi, ijtimoiy muloqot va demokratik ishtirok muammolari tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari jamiyat a’zolarida bolalik davridan boshlab fuqarolik ongini shakllantirish, yoshlarda milliy g‘urur, siyosiy identifikatsiya va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, shuningdek raqamli makonda mas’uliyatli fuqarolik xulq-atvorini qaror toptirishdan iboratdir. Bu esa mazkur jarayonga chuqur ilmiy yondashuvni talab etib, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish qonuniyatlarini aniqlash, samarali metodologiyalarni ishlab chiqish hamda zarur resurslarni oqilona yo‘naltirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqida shunday deydi: “...yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda”[1]. Bu esa jarayonlarni chuqur ilmiy asosda o‘rganib chiqish, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini tahlil qilish hamda globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarni ijtimoiylashtirish va ularning kuchlarini mushtarak maqsadlar yo‘lida safarbar qilishning eng zamonaviy yo‘llarini aniqlashni taqozo etadi. Bu boradagi tadqiqotlarning pirovard maqsadi esa O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning eng ustuvor maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi

[1] Мирзиёев Ш.М O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. https://www.president.uz/uz/1876 -
[2] https://lex.uz/docs/-5013007#-5014208

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarori, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-sonli “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta’limning uzviylik va uzluksizligini, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda birinchi Prezidenti I.A.Karimovning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga doir konseptual va muhim metodologik ahamiyatga molik bo‘lgan asarlarida muammoning eng asosiy yo‘nalishlari yoritib berilgan[3]. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish davlat va jamiyat taraqqiyotining eng asosiy sharti, barqarorlikning kafolati sifatida olimlarning ilmiy faoliyati obyekti bo‘lgan.

O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularni milliy an’ana va qadriyatlariga uyg‘un ravishda tarbiyalash hamda ularda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha konseptual qarashlar Q.Nazarov, G.Tulenova, F.Yuldasheva, Sh.Paxrutdinov, M.Bekmurodov, N.Jo‘rayev, S.Otamurodov, V.Qo‘chqorov, A.Egamberdiyev, B.G‘aniyev va boshqa shu kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan[4].

---

[3] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I-jild. Toshkent, O‘zbekiston. 2017. - 592 b; Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II-jild. Toshkent, O‘zbekiston. 2018. - 512 b; Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. III-jild. Toshkent, O‘zbekiston. 2019. - 400 b; Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. IV-jild. Toshkent, O‘zbekiston. 2020.–512 b; Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2002 yil 26 iyun //Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2002. – B. 393-396.; Karimov I.A. Yovuz kuchlar xalqimizni o‘z tanlagan yo‘lidan qaytara olmaydi. (O‘zbekiston televideniyasi uchun berilgan intervyu, 2004 yil 29 mart) //Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2004. – B. 238-242; Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2004 yil 26 iyun. Karimov I.A. Bizni tanlagan yo‘limizdan hech kim qaytara olmaydi. 2005 yilning 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro‘y bergan voqealar munosabati bilan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o‘tkazilgan matbuot anjumanidagi bayonot va muxbirlarning savollariga javoblar //O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. –Toshkent: O‘zbekiston, 2005. -B. 306-368.;

[4] Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent, Faylasuflar milliy jamiyati. 2004. – B. 26; Tulenova. G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2006. – B. 85.; Yuldasheva. F. Falsagada etika fanini o’qitishning nazariy va amaliy masalalari. FarDU. Ilmiy xabarlar. 2017, 4-son. - 54b.; Paxrutdinov. Sh. Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –Toshkent: 2001. – 300 b.; Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. – Toshkent: Fan, 1999. – 170 b.; Jo‘raev N. Tarix – inson, zamon va makon falsafiyasi. O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik jurnali.

Adolat, mas'uliyat va burch kabi axloqiy kategoriyalarning fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga bevosita ta'siri muammosi M.Qahharova tomonidan, fuqarolik pozitsiyasini shakllanishi, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligi va ma'naviy muhit masalalarida G.Tulenova, demokratik tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy muammolar va bu jarayonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish masalalari bo'yicha Sh.Madayeva, siyosiy madaniyat va fuqarolik pozitsiyasining dialektik aloqadorligi bo'yicha A.Jalilovlarning tadqiqotlari e'lon qilingan. Shu bilan birga, siyosiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida mafkuraviy omil hamda buning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ta'siri E.Mallayeva, yoshlarga oid davlat siyosatining mexanizmlari va texnologiyalari A.Xolmaxamatov, siyosiy modernizatsiya jarayonida fuqaroviy faollik masalalari N.Shodiyev tomonidan o'rganib chiqilgan[5].

Rossiyalik tadqiqotchilar I.Yarulin, A.V.Rachipa va A.V.Aleksevalar, R.V.Upzikov va A.S.Kiselev, A.V.Biryaeva va N.N.Perepechalar tomonidan fuqarolik pozitsiyasining turli jihatlari bo'yicha tadqiqotlar e'lon qilindi[6].

Tadqiqotda mavjud ilmiy izlanishlardan farqli ravishda yoshlarda fuqarolik pozitsiyasiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar kompleks tahlil qilinib, Yangi O'zbekistonda kechayotgan jarayonlarning ushbu yo'nalishga ta'siri ochib berilgan.

Shuningdek, globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish hamda milliy identiklik asosida fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalalari qamrab olingan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-yil 20-yanvarda tasdiqlangan "O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va innovatsiyalarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

2017, 3-son. 230 b.; Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. –Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 456 b.; Qo'chqorov V. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratiyalash jarayonida milliy o'zlikni anglash muammosi (siyosiy-siyosiy tadqiqot) Falsafa fan. dokt. dissertatsiyasi. –Toshkent: 2009. - 325 b.

[5] Tulenova. G Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2006. - B. 85.; Madaeva. Sh O'zbek mentalitetida demokratik tafakkurni shakllanish xususiyatlari. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2009. -232 b; Jalilov A. O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlanish jarayonlari. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajsini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2020. - 32 b.; Mallaeva E. Siyosiy madaniyatni rivojlantirishning mafkuraviy omillari. Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2020. -B 58.; Qahharova. M Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va echimlar. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - 118 b.; Xolmaxamatov A. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari. Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2019. – 9 b.

[6] Ярулин.И.Ф. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. Казан, Татарское издательство "Хетер". 2011. – 6 с.; Рачипа А.В., Алексеева А.В., & Бурков В.В. (2016). Идея гражданственности в трудах мислителей эпохи Возрождения. Актуалние проблеми гуманитарних и естественних наук, (4-4), - 15 с.; Упзиков Р.В., Киселёв А.С. О консепсии гражданского общество: истоки формирования идеи // Вестник Тамбовского государственного университета. Сер. Политические науки и право. 2016. № 2 (6) 74 с.; Биряева Анастасия Владимировна, & Севанкаева Валерия Валеревна (2017).

- fuqarolik pozitsiyasi genezisini bugungi ijtimoiy-siyosiy voqelik paradigmasi nuqtai nazaridan tadqiq etish hamda yoshlarda uni rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlarni aniqlash;

- yoshlarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash va ularning xususiyatlarini tahlil qilish;

- yoshlar fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ijtimoiy, ma’naviy va axboriy omillarni tahlil qilish;

- xorijiy davlatlarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish borasidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonda yoshlar fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlaridir.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda yoshlar fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-falsafiy omillar tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xolislik va o‘zaro aloqadorlik, nisbiylik dialektikasi, mantiqiylik, qiyosiy va tizimli tahlil, umumlashtirish, vorisiylik, tarixiylik hamda dialektik ilmiy tadqiqot usullari bilan birga sotsiologik so‘rov (anketa so‘rovi) va olingan ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– fuqarolik pozitsiyasining genezisi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy voqelik paradigmasi nuqtai nazaridan tahlil qilinib, taraqqiyotning hozirgi bosqichida yoshlarda uni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni qo‘llash yo‘llari dalillangan;

– fuqarolik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati fuqarolik pozitsiyasi prizmasida talqin qilinib, uning milliy identiklikni shakllantirishdagi o‘rni asoslangan;

– empirik tadqiqotlar asosida yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida huquqiy nigilizm, siyosiy befarqlik hamda iqtisodiy madaniyat etishmasligi isbotlangan;

– xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida yoshlar o‘rtasida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, harbiy-vatanparvarlik harakatlarini tashkil etish hamda siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti faoliyatini kuchaytirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar argumentlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlik hamda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy transformatsiyaning muvaffaqiyatini ta’minlashda aholining asosiy tarkibiy qismini tashkil qiluvchi yoshlar kontingentining xayrixohligi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish;

globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash hamda bu boradagi xorijiy tajribani mamlakatda tatbiq etish yo‘llari ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, maxsus jurnallar, chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va xulosa, taklif

va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O‘zbekistonda yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy masalalari tadqiq etildi. Fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar tahlil etilib, unga to‘sqinlik qilayotgan omillarning mohiyati ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, jamiyat a’zolarida fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish uchun ulardagi huquqiy nigilizm, siyosiy befarqlik va iqtisodiy madaniyat kabi muammolarni kompleks tarzda hal qilish zarurligi aniqlandi. Shu bilan birga xorijiy davlatlardagi bu boradagi tajribani qo‘llash yo‘llari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga doir ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy takliflar asosida:

fuqarolik pozitsiyaning genezisini bugungi ijtimoiy-siyosiy voqelik paradigmasidan o‘rganib chiqib, taraqqiyotning hozirgi bosqichida yoshlarda uni shakllantirishga doir tarixiy tajribani qo‘llash yo‘llarini aniqlashga doir taklif va tavsiyalardan O’zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamentining yosh xodimlar bilan ishlash sohasida 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo’lgan tashkiliy-tadbirlar rejasining 11-bandida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2026-yil, 23-yanvardagi 2/411-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Ichki ishlar vazirligi tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan yosh xodimlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligi oshgan;

yoshlarda volontyorlik faoliyatini kuchaytirish yo‘llari ishlab chiqilganiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tomonidan 2023-yil 18-avgustdagi “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-863-son qonunining 9^1-moddasi (maxsus vakolatli davlat organining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari)ni, 9^2-moddasi (respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining volontyorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari)ni, 10-moddaning birinchi qismi (volontyorlik faoliyati sohasidagi davlat maqsadli dasturlarini o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi), 19-moddasi (volontyorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunga)ga, kiritilgan o‘zgarishlarni shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 12-maydagi 3/dn-66-son ma’lumotnomasi);

Xorijiy davlatlar misolida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish tajribasi o‘rganib chiqilib, bolalar va yoshlarning harbiy vatanparvarlik harakatlarini tashkil etish, siyosiy partiyalarning yoshlar qanotini yanada kuchaytirish yo‘llari ishlab chiqilganiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining 2026-yilga mo‘ljallangan ish rejasining 4-bandiga qo‘shilib, ijroga qaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining fan,

ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining 2026-yil 09-yanvardagi 04/8-10-02-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar Yangi O‘zbekistonni kelajagi bunyodkori sifatida har jabhada o‘zlarini ko‘rsatishlari, fuqarolik pozitsiyasining kuchayishiga imkoniyat yaratib bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza shaklida bayon etilgan, shuningdek xalqaro jurnallarda 3 ta va OAK jurnallarida 3 ta maqola chop etilib, aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, xalqaro jurnallarda 3 ta maqola, respublika konferensiyalarida 5 ta maqola, xalqaro konferensiyalarda 3 ta maqola, boshqa jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik pozitsiyasi fenomenini o‘rganishning nazariy metodologik masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida ushbu kategoriyaning genezisiga doir konseptual qarashlar antik, Sharq va G‘arb faylasuflarining nuqtayi nazaridan kelib chiqib yoritib berilgan.

Fuqarolik – fuqaro ekanlik, fuqaroga oidlik, fuqaroning huquqiy holati degan ma’nolarni beradi. “Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularning amalga oshirilishini ta’minlash choralarini ko‘radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqaro boshqa mamlakat hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko‘rsatadi[8]”. O‘zbekistonda fuqarolarning tinchligi va farovonligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Shuning uchun, fuqarolar doimo davlat himoyasida ekanligini his qilib turishi zarur. Fuqarolarning davlat hayotiga nisbatan javobgarligi hamda qabul qilinayotgan qarorlardagi ishtiroki masalasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday munosabatlar shakli fanda fuqarolik pozitsiyasi deb ataladi. Bu o‘rinda pozitsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:“1) Har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o‘rni, ishg‘ol qilib turgan joyi, mavqeyi holati vaziyati;

[8] https://qomus.info/enciklopedia/cat-f/fuqarolik-uz/.

2) qo‘shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtayi nazaridan jihozlangan yer maydoni;

3) shaxmat va shashka o‘yinida donalarning joylashish holati;

4) biror masalada tutilgan yo‘l, nuqtayi nazar, voqea hodisaning muayyan bahosi,”[9] degan ma’nolarda keladi.

Arastu o‘zining “Siyosat” asarida kimki qonunchilik kengashi va sud hokimiyati faoliyatida ishtirok etgan bo‘lsa, biz uni fuqaro ekanligini tasdiqlaymiz[10], degan.

Fuqarolik pozitsiyasi genezisini o‘rganish davomida tarixga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qadimgi “Sparta va Afinada fuqarolar shaxsiy (yer, uy) va siyosiy (milliy yig‘ilishda ishtirok etish) huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, ular qonunlarga rioya qilishlari va vatanni himoya qilishlari shart edi. Aholining salmoqli qismini tashkil etuvchi qullar va ayollar fuqarolik huquqlariga, jumladan, Vatanni himoya qilish huquqiga ega emas edilar. “Afinada mamlakatning bo‘lajak fuqarolarining shaxsiga yuqori talablar qo‘yildi, chunki ularning har biri keyinchalik davlat rahbari bo‘lishi mumkin edi. Qadimgi Yunoniston davlatlariga davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etuvchi, siyosat manfaatlarini ham so‘zda ham qurolda himoya qilishni biladigan kuchli fuqarolar kerak bo‘lgan”[11].

Sharq faylasufi va “ikkinchi ustoz” Al-Farobiy (870-950) o‘zining “fuqarolik siyosati”, “Baxtga yo‘l ko‘rsatuvchi”, “Baxtga erishish to‘g‘risida” kabi asarlarida vatanparvarlik tuyg‘usini hisobga olgan holda, axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat bergan. Mutafakkirning fikricha, insonning zaruriy sifati o‘z xalqiga sadoqat an’analariga rioya qilishdir. Ta’limning asosiy vositasi esa u “fuqarolik ilmi” va uning kichik bo‘limlari, huquqshunoslik, dogmatik ilohiyot va boshqalarni o‘rganishga ustunlik berdi.

Fuqarolik pozitsiyasi bilan uzviy aloqada bo‘lgan kategoriya fuqarolik pozitsiyasining genezisi ham ushbu tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushunib olishga yordam beradi. Juda ko‘p ekspertlarning fikricha, birinchi bo‘lib fuqarolik pozitsiyasi tushunchasini ilmiy iste’molga kiritgan alloma J.Lokkdir[12]. Faylasufning ta’kidlashicha, ijtimoiy shartnoma natijasi fuqarolar davlatning ma’lum vazifalarini o‘ziga oladi va shu orqali adolatli jamiyat qurish imkoniyati kengayadi. Bu esa davlat boshqaruvida o‘zining huquq va majburiyatlarini anglab etgan shaxslarning faol ishtirokini taqozo etadi. Bunday ishtirok esa keyinchalik fuqarolik pozitsiyasi deb nomlangan kategoriya orqali ifodalandi. Insoniyat taraqqiyotining o‘tgan davri mobaynida faylasuf va siyosatshunos olimlarning qarashlari bilan mazkur kategoriya boyitib boriladi.

T.Gobbs fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini nihoyatda katta baholagan. Uning fikricha, fuqarolar davlat boshqaruvini adolatsiz deb hisoblasa

---

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. III-жилд. / Мадвалиев.А тахрири остида. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 325 б.


[10] Аристотел. Политика: соч. в 4-х т. Т.4. – Москва: Мысль, 1999. – 320 с.

[11] Ярулин.И.Ф. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. – Казан, Татарское издателство “Хетер”. 2011. – С. 6.

[12] Упзиков Р.В., Киселёв А.С. О консепсии граждаского общество: истоки формирования идеи // Вестник Тамбовского государственного Университета. Сер. Политические науки и право. – 2016. – № 2 (6). – С. 67–74.

unga bo‘ysunmasliklari mumkin[13]. Albatta, bu kabi fuqarolik jamiyati hamda fuqarolik pozitsiyasining fundamental konsepsiyasining o‘sha vaqtda ishlab chiqilishi kelajak avlod uchun ham katta ahamiyatga egadir. Chunki fuqarolik pozitsiyasi nafaqat davlat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, balki uning siyosatini belgilash va amalga oshirishdagi ishtirokni ham o‘z ichiga oladi. Fikrlar xilma-xilligi sharoitida siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar sharoitida fuqaro har qanday siyosiy kuchning faoliyatiga nisbatan o‘zining pozitsiyasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Plyuralizmsiz fuqarolik pozitsiyasi bo‘lishi mumkin emas. Chunki tanqidiy tafakkurgina taraqqiyotni ta’minlab bera oladi. Har qanday qarashlar va g‘oyalar eskiradi, ularning o‘rniga esa yangilari kelishi tabiiy holdir. Bu jarayondagi qarama-qarshilik sharoitida aynan fuqarolik pozitsiyasi jamiyat a’zolarini safarbar etadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda fuqarolik pozitsiyasini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning empirik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, unda fuqarolik pozitsiyasining shakllantirilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi, to‘sqinlik qiluvchi omillar bayon etilgan.



1-rasm. Fuqarolik pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari xalqaro miqyosda ham munosib e’tirof etildi. Jumladan, Janubiy Koreyadagi Osiyo jurnalistlar assosiatsiyasi Shavkat Mirziyoyevni “Osiyoda 2018-yilning odami” deb e’tirof etdi[14]. Ushbu xabar haqidagi izohlarga e’tibor bersak, aksariyat foydalanuvchilar davlat rahbarining siyosatini qo‘llab-quvvatlashi va prezident sifatida Shavkat Mirziyoyevdan faxrlanishlarini ma’lum qilganlar[15]. Bu kabi xalqaro va milliy darajadagi e’tiroflar natijasida jamoatchilik, xususan, yoshlar orasida o‘z vatani, xalqi va davlatiga bo‘lgan yuksak ishonch paydo bo‘ladi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning kelajagiga nisbatan daxldorlik hissi kuchayadi.

[13] Биряева А.В., Севанкаева В.В. Государство и право в учении Джона Локка. Контентус, – 2017. 12 (65). – С. 11.
[14] https://www.koreatimes.co.kr//www2/common/404.html
[15] https://www.gazeta.uz/ru/2018/12/21/aja/ - Шавкат Мирзиёев назван «Человеком года в Азии».

O‘zbekistonda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim omillardan biri ularning siyosiy faolligidir. Siyosiy partiyalar tomonidan yaratilgan mafkuraviy maydondagi siyosiy faollik qonun doirasida, maqsadga yo‘nalgan va milliy manfaatlarga xizmat qiladigan bo‘ladi. Yoshlarning siyosiy faolligi ma’lum bir mafkuralarning to‘g‘ri ekani, ularning mamlakat taraqqiyotiga ko‘proq xizmat qilishiga ishonch asosiga quriladi. Siyosiy partiyalarning o‘zaro qarama-qarshiligi raqobat muhitida vujudga keladigan madaniy, siyosiy va g‘oyaviy kurash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning liberal-demokratik, konservativ yoinki so‘l partiyalar ta’siridagi kurashuvchanlik kayfiyati kelgusidagi suverenitetga qarshi qaratilgan tashqi kuchlarning ana shunday mazmunga ega bo‘lgan buzg‘unchilik harakatiga qarshi kurashiga asos bo‘lib xizmat qiladi.


Fuqarolik pozitsiyasini shakllanishida iqtisodiy siyosatning ham o‘z o‘rni bor. Ma’lumki, ijtimoiy ong jamiyatning mo‘ljallari uning a’zolari maqsad-muddaolari belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Davlatning mafkurasi, konstitutsiyasi va saylab qo‘yilgan davlat rahbari tomonidan e’lon qilingan siyosatning ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy ongda aks etar ekan, jamoatchilik mana shu ma’lumotlar asosida o‘zining ichki resurslarini tegishli yo‘nalish bo‘yicha safarbar qiladi.

Fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning axloqiy tomonlari ham juda keng qamrovlidir. Professor M.Qahhorova bu haqda quyidagicha yozadi: “Mas’uliyat – shaxs uchun faoliyatdagi ikkinchi qanot hisoblanadi. Chunki u adolatli kishi sifatida barcha muammolarni o‘z zimmasiga oladi. Zero, mas’uliyat adolatli bo‘lishning mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki mas’uliyat ma’naviy xatti-harakat asosi sifatida shaxsda uch kamolotni hosil qiladi: vujud pokligi; mustahkam iroda, maqbul fe’l-atvor”[16]. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ijtimoiy omillari bilan birga axloqiy masalalari ham keng qamrovli bo‘lib, ularning ta’sirini ham etarli darajada baholash kerak deb hisoblaymiz. Aynan mas’uliyat shaxsdagi fuqarolik pozitsiyasini axloqiy asosini tashkil qiladi. Adolat, mas’uliyat va burchdan iborat uchlik esa, uni mukammal shaklda namoyon bo‘lishi va shaxs ichki imkoniyatlarini realizatsiya qilish mezoniga aylantirishi mumkin.

Ish doirasida 2023-yilning sentyabrdan to 2024-yilning 1-iyulgacha bo‘lgan davr oralig‘ida sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi. Unda 700 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etdi. Sotsiologik tadqiqotning asosiy maqsadi yoshlarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasini va uning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

So‘rovnoma ishtirokchilariga “Sizningcha, O‘zbekiston taraqqiyoti ko‘proq nimaga bog‘liq?” (3 tagacha javobni belgilash mumkin) degan savol berildi. Ma’lumki, iqtisodiy taraqqiyot haqida umumiy paradigmal qarashlar shakllanib ulgurgan bo‘lib, har bir davlat uchun alohida bo‘lmasa-da, rivojlanishning umumiy qonuniyatlari kashf etilgan.


[16] Қаххорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий мухит: муаммо ва ечимлар: фалс. фан докт…. дисс. – Т., 2012. –118 б.



2-rasm. Respondentlarning mamlakat taraqqiyoti omillari haqidagi tasavvuri

So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, 50 foizga yaqin ishtirokchilar mamlakat taraqqiyoti rahbarlarning sa’y-harakatlariga, 48 foizi esa fuqarolarning tashabbuskorligiga bog‘liq deb hisoblashgan. Shuningdek, 37 foiz respondentlar qo‘shni davlatlar bilan aloqaga, 27 foiz respondentlar esa chet davlatlarning investitsiyasini afzal deb bilgan. 10 foizdan ortiq so‘rovnoma ishtirokchilari xalqaro tashkilotlar investitsiyasiga bog‘liq deb hisoblaydilar.

So‘rovnoma ishtirokchilaridan mamlakat taraqqiyotida huquqiy yondashuvlar bo‘yicha savolga javob berishi so‘raldi.



3-rasm. Rivojlangan davlatlarda qonun ustuvorligi sabablari bo‘yicha berilgan savolga javoblar

Respondentlarning fikricha, fuqarolarning qonun oldida tengligi, jazolarning qattiqligi va fuqarolarning qonunga birday amal qilishi eng asosiy omillardir. Shuningdek, qabul qilingan qonunlarga rahbarlarning ham amal qilishi, qonunlarni hamma bilishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etib o‘tilgan. Bu tasavvurlarning ahamiyati shundan iboratki, fuqarolar nisbatan rivojlangan, qonun ustuvor bo‘lgan davlatlardagi farovonlikning sabablarini tahlil qilishi, uni taqqoslashi orqali ana shunday jamiyat qurishga bo‘lgan istak paydo bo‘ladi. Jamiyatning buyuk maqsadlar yo‘lida birlashishi, o‘zining ichki resurslarini sarflay bilishi va ma’lum bir maqsadlarga erishishida bu kabi namuna bo‘ladigan modellarning juda katta ahamiyati bor.

Fuqarolik juda keng ijtimoiy-siyosiy voqelik. U nisbatan tor doiradagi ijtimoiy guruhlar – millat, din va mahalliychilikdan yuqoriga ko‘tarila olganda haqiqiy siyosiy resursga aylanib, davlat va jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu sababli ham fuqarolik pozitsiyasi o‘zining tarkibiga jamiyatning barcha sohalarida bo‘ladigan jarayonlarga nisbatan tezkor, adolatli va halol munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, qonuniy va adolatli munosabatlarni shakllanishini talab qilar ekan, fuqarolar o‘zlari ham huquqiy me’yorlarga rioya qilishga intiladi. Bu dialektik jarayon bo‘lib, jamiyatning ma’lum bir sohasidagi huquqiy nigilizm boshqa sohalarga ham tarqalib, umumiy loqaydlik va e’tiborsizlik tuyg‘ularini kuchaytiradi.



4-rasm. Fuqarolar o‘rtasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqin hamkorlikka to‘siq bo‘layotgan omillar

Respondentlardan qonun ustuvorligini ta’minlashda nima uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan faol hamkorlik qilmaslik bo‘yicha berilgan savolga javoblar bu boradagi muammolarning asosiy mazmunini ochib berdi. So‘ralganlarning 29 foizga yaqini qonun buzilishi holati yuz bergani haqida ma’lum qilish ortidan kelib chiqadigan huquqiy protsessual jarayonlardan cho‘chishlarini ma’lum qilganlar. Haqiqatdan ham, jamoatchilik orasida biror-bir jinoyatga guvoh bo‘lib qolish yoki xolis guvoh sifatida jalb qilinishidan tiyilishga intilish tendensiyasi ustuvor.

So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, respondentlarning katta qismi jamiyat va davlat rivoji bevosita fuqarolarning tashabbuskorligi va ularning faol fuqarolik pozitsiyasi bilan bog‘liq ekanini yaxshi tushunadilar. Fuqarolik pozitsiyasi shakllanishining huquqiy, siyosiy va iqtisodiy tomonlari bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarning hammasi ham faol fuqarolik pozitsiyasini har doim ham namoyon etavermasligi, bunga qator omillar to‘sqinlik qilishi namoyon bo‘lib qoldi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish istiqbollari”** deb nomlangan.

Faol hayotiy pozitsiya nafaqat davlat va jamiyat hayotidagi masalalar, balki o‘zining shaxsiy kamoloti, oiladagi o‘rni, ta’lim va mehnat jamoalaridagi ishtirokiga

ham bog‘liqdir. “– Z, ya’ni bugungi yosh avlod alohida auditoriya hisoblanadi. Biz ularni axborot ummoniga g‘arq bo‘lgan yoki yangiliklar to‘fonida qolib ketgan, deb o‘ylaymiz”, - deydi Beruniy Alimov. Vaholanki, yosh avlod faqat o‘ziga kerakli bo‘lgan axborotni, xususan, qisqa hajmdagi matnlarni o‘qiydi. Tahliliy materiallarga e’tibor bermaydi. Nima uchun? Sababi, ular har sohadan bir shingil yangilik topishni istashadi. Chunki ularda “qisqa o‘ylash” (inglizcha “clip thinking”, ruschada “клиповое мышление”) juda yaxshi shakllangan. Ularda bitta axborot mavzusiga chuqur kirib borishga yoki tahliliy yondashilgan materialni o‘qishga vaqt ham, imkoniyat ham chegaralangan. Shundan kelib chiqib, ular biror masalaga jiddiy va chuqurroq kirishishga o‘zlarida sabr-toqat topa olmaydi”[17]. Bu esa faol hayotiy pozitsiyani shakllanishiga to‘siq bo‘ladigan omillardan biridir.

Fuqarolik pozitsiyasi jamiyat va davlat hayoti tashkil qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli dunyoning barcha davlatlarida ham fuqarolarning ma’rifatli bo‘lishi, davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalarida faol ishtirok etishi uchun tegishli shart-sharoit yaratib berishga – fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga katta e’tibor qaratiladi. Dunyo davlatlarining tashkil topishi va tarixi turlicha. Bu esa o‘z-o‘zidan fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki, mavjud masalalarga yondashuvni turlicha bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda dunyo davlatlarining to‘plagan tajribasi O‘zbekiston uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

